

## **G'AZNACHILIKDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTISH**

*Eshonqulov Azamat Abdiraximovich*

*TIFT Universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasini mudiri v.b.*

*Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent*

*Baxodirova Sayyora Abbos qizi*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,*

*magistratura tinglovchisi*

G'aznachilik tizimi davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va nazorat qilishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda davlat moliyaviy nazoratini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, moliyaviy resurslarni to'g'ri taqsimlash, ularning maqsadli va samarali ishlatilishini nazorat qilish bugungi kunda davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur shartlardan biridir. Davlat moliyaviy nazorati g'aznachilik faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazorat tizimining samaradorligi nafaqat davlat byudjetining to'g'ri shakllanishi va bajarilishi, balki moliyaviy intizomni ta'minlash, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni oldini olishga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli, g'aznachilikda davlat moliyaviy nazorat boshqaruvini takomillashtirish yo'llarini izlash, uning zamonaviy usullarini joriy etish va mavjud tizimni optimallashtirish masalalari davlat organlari va iqtisodchi mutaxassislarining e'tibor markazida turibdi. Bundan tashqari, iqtisodiyotning globalashuvi va davlat boshqaruvi sohasida texnologik yutuqlarning jadal sur'atda rivojlanishi davlat moliyaviy nazorat tizimining ham zamonaviy texnologiyalar va xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirilishini talab qiladi. Jahon miqyosidagi tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, moliyaviy risklarni boshqarish tizimlari davlat moliyaviy boshqaruvi

samaradorligini oshirishga sezilarli darajada yordam beradi. G'aznachilikda davlat moliyaviy nazorat boshqaruvini takomillashtirish uchun bir qancha yo'llar va zamonaviy usullarni joriy etish zarurdir. Quyidagi rasmda ushbu yo'llarning ayrim muhim jihatlari keltirilgan.



### **1-Rasm. G‘aznachilikda davlat moliyaviy nazorat boshqaruv usullari<sup>1</sup>**

Yuqoridagi rasmda keltirilgan usullarga qo‘shimcha ravishda davlat moliyaviy nazorati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish maqsadida doimiy ravishda trening va seminarlarni o‘tkazish. Zamonaviy texnologiyalarni va nazorat mexanizmlarini to‘liq tushunib, ulardan foydalanishni ta‘minlash hamda moliyaviy nazorat bo‘yicha xodimlar uchun sertifikatlash tizimini joriy etish orqali ularning kasbiy darajasini oshirish va nazorat jarayonlarini yaxshilash. Bu usullarni amaliyotga joriy etish orqali g‘aznachilik tizimida davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshirish, shuningdek, byudjet mablag‘larining oqilona boshqarilishi va maqsadli ishlatilishini ta‘minlash mumkin. G‘aznachilik tizimida davlat moliyaviy nazorat boshqaruvini takomillashtirish zamonaviy davlat moliyaviy boshqaruvini uchun muhim vazifalardan biridir. Davlat mablag‘larini samarali boshqarish, ularning to‘g‘ri va maqsadli taqsimlanishini ta‘minlash jamiyatning iqtisodiy barqarorligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu maqsadda, raqamlashtirish, risklarni boshqarish, moliyaviy intizomni kuchaytirish, xalqaro tajribani joriy etish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash kabi zamonaviy usullarni qo‘llash dolzarb hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat moliyaviy resurslarning nojo‘ya ishlatilishini oldini olishga, balki korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, davlat xodimlarining malakasini oshirish va samarali nazorat mexanizmlarini yaratish orqali moliyaviy boshqaruv tizimida yuqori darajadagi shaffoflik va ishonchni shakllantirish mumkin. Oqibatda, davlat mablag‘lari xalq manfaati yo‘lida samarali foydalaniladi, bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sholdarov Dilshod Azimiddinovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li. G'aznachilik faoliyatida amalga oshirilayotgan yangi islohotlar. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016.
2. G.Qosimova. "G'aznachilik".O'quv qo'llanma 2013 yil. Iqtisod-Moliya.
3. Michael Parry Presentation [www.michaelparry.com](http://www.michaelparry.com)
4. Tuychiyev A.J., Tashmuxmedova D.A. G'aznachilik. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIYA" 2019. -834 b.
5. Ibragimov A.K , Sugirbayev B.B. Byudjet nazorati va auditi T.: "infoCOM.UZ" 2010-y.
6. [www.ecmf.kz](http://www.ecmf.kz)